

**YANGIQO‘RG‘ON SHEVASIGA OID AYRIM LEKSIK  
XUSUSIYATLAR**

**Abdulxayeva Durdona Alisher qizi**

**Namangan davlat universiteti talabasi**

**Ilmiy rahbar: Qo‘ziyev Umidjon Yandashaliyevich,**

**PhD, dotsent**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Namangan viloyati Yangiqo‘rg‘on tumanining shevasiga oid ayrim so‘zlarning leksik xususiyatlari haqida ma‘lumotlar keltirib o‘tiladi. Shuningdek, shevadagi so‘zlar qiyosiy-tarixiy jihatdan yoritiladi.

**Kalit so‘zlar:** lahja, sheva, lingvistik tahlil, lingvogeografiya.

**SOME LEXICAL FEATURES OF THE YANGIKURGAN DIALECT**

**Annotation:** This article provides information about the lexical features of some words related to the dialect of Yangikurgan district of Namangan region. Also, the words in the dialect are covered from a comparative-historical point of view.

**Key words:** dialect, subdialect, linguistic analysis, linguogeography.

**НЕКОТОРЫЕ ЛЕКСИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ГОВОРА  
ЯНГИКУРГАНСКОГО РАЙОНА**

**Аннотация:** В данной статье представлена информация о лексических особенностях некоторых слов, относящихся к диалекту Янгикурганского района Наманганской области. Также слова в диалекте освещены со сравнительно-исторической точки зрения

**Ключевые слова:** диалект, акцент, лингвистический анализ, лингвогеография

**Kirish**

Dunyodagi barcha mamlakatlarning o‘ziga xos tili mavjud. O‘zbekiston hududidagi ko‘plab viloyat va tumanlarning ham o‘ziga xos shevasi bor. Shevalar o‘sha yerning tarixi va etnik tarkibi bilan chambarchas bog‘liq. Yangiqo‘rg‘on tumani shevasi o‘zbek tilining umumiy xususiyatlarini o‘zida aks ettiradi. Tilning shakllanishini o‘rganish bilan birgalikda o‘sha yerning tarixi va etimologiyasini ham bilish zarur. O‘zbek tilining turli hudud shevalari va ularning leksik xususiyatlari E.D.Polivanov, G‘.O.Yunusov, K.K.Yudaxin, A.K.Borovkov, V.V.Reshetov,

Sh.Afzalov, H.G‘ulomov, T.Mirsoatov, Yu.Aliev, S.Ibrohimov, I.Farmonov, O‘.Sharipov, N.G‘afurova, I.Shamsiddinov, H.Uzoqov, S.Zufarov, T.Yo‘ldoshev, H.Sharipov, T.Sodiqov, T.Qudratov, B.Jo‘raev, M.Mirzaev, V.Egamov, O.To‘raqulov, E.Sheraliev, A.Ishaev, N.Rajabov, F.Abdullaev, E.O‘rozov, Sh.Nosirov, X.Jo‘raev, Q.Muhammadjonov, S.Rahimov, R.Jomonov, Yu.Ibragimov, A.Shixiev, N.Shoimova, R.Yo‘ldoshev, M.Begaliev, B.To‘ychiboev, Q.Qashqirli, S.G‘aybullaev, A.Allaberdiev kabi tadqiqotchilar tomonidan tizimli o‘rganildi<sup>1</sup>. Yangiqo‘rg‘on tumani shevasiga oid tadqiqotlar ham ko‘plab amalga oshirilgan. Hozirgi kunda ham Yangiqo‘rg‘on shevasidagi semantik va leksik jarayonlarni o‘rganish o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan.

### **Tadqiqot metodologiyasi**

Ushbu tadqiqot doirasida Namangan viloyati Yangiqo‘rg‘on tumani shevasiga xos ayrim so‘zlarning leksik xususiyatlari tahlil qilinib, ularni tasniflash va tavsiflash usullari asosida o‘rganildi.

### **Tahlil va natijalar**

Yangiqo‘rg‘on tumani 1926-yil 29-sentyabrda tashkil etilgan. G‘arbdan Kosonsoy, janubdan Namangan va Uychi tumanlari, shimoliy g‘arb, shimoliy va sharqda Qirg‘iziston Respublikasi, Chortoq tumani bilan chegaradosh. Maydon 0,54 ming km<sup>2</sup>. Aholisi 166,7 ming kishidan ziyod (2005). Tumanda 1 shaharcha (Yangiqo‘rg‘on), 11 qishloq fuqarolari yig‘ini (Bekobod, Birlashgan, Zarbdor, Zarkent, Istiqlol, Navkent, Navro‘zobod, Nanay, Paromon, Sharq Yulduzi, Qorapolvon) bor. Markazi — Yangiqo‘rg‘on shaharchasi. Yangiqo‘rg‘on tumani hududidagi Qorapolvon, Zarkent, Nanay, Bekobod, Iskavot, Poromon kabi qishloqlar tarixi uzoq o‘rta asrlarga va hatto undan ilgariroqqa borib taqaladi. Tuman hududi asosan tekislik mintaqasiga xos bo‘lib, yer yuzasi shimoldan janubga va g‘arbdan sharqqa tomon pasayib boradi. Bu geografik xususiyatlar tuman iqlimi va qishloq xo‘jaligiga ta‘sir ko‘rsatadi. Yangiqo‘rg‘on tumanida qishloq xo‘jaligi rivojlangan bo‘lib, asosan paxta, g‘alla, meva-sabzavot yetishtiriladi. Shuningdek, tumanda hunarmandchilik va boshqa sanoat tarmoqlari ham rivojlanmoqda. Yangiqo‘rg‘on tumani o‘zining boy tarixi, madaniy merosi va rivojlanayotgan iqtisodiyoti bilan Namangan viloyatining muhim hududlaridan biri hisoblanadi.

<sup>1</sup> Xasanov O. O‘zbek adabiy tilidagi leksik lakunalarning dialektal asoslari. – Toshkent, 2021

Yangiqo‘rg‘on tumani aholisining shevasi qarluq-chigil-uyg‘ur lahjasi (uyg‘ur tili)ga mansub hisoblanadi. Quyida ushbu shevada uchraydigan ayrim so‘zlarning lingvistik tahlili keltiriladi. Ushbu hududda tojik tilidan kirib kelgan ko‘plab so‘zlarni uchratishimiz mumkin. Masalan, “lagan” so‘zi mahalliy tilda “tovoq” deb yuritiladi.

Fors tilidan kirib kelgan so‘zlar ham mavjud. Masalan, olcha mevasini mahalliy tilda “olvali” shaklida uchratishimiz mumkin. Aslida bu so‘z forscha “oluboli” so‘zidan kirib kelgan bo‘lib nordon meva ma‘nosini beradi.<sup>2</sup> Shuningdek, “kushod” so‘zi ham ko‘p foydalanilib, forscha “kushod” (دکشا) ochiq, oshkora degan ma‘nolarni bildiradi.<sup>3</sup> Mahalliy tilda taom nomlarini ham o‘zlashganini ko‘rishimiz mumkin. Masalan, “ugra” taomi nomi ham forscha “ugro” (اگرو) so‘zidan olingan.<sup>4</sup>

Bundan tashqari, Yangiqo‘rg‘on shevasiga arab tilidan ham so‘zlar kirib kelgan. Masalan, “nihoyat” so‘zi o‘rniga ko‘proq “axiyri” so‘zi qo‘llanadi. Bu so‘z arabcha bo‘lib, ma‘lum vaqt davom etgandan keyin, “pirovardida” ma‘nosini anglatadi. Shu bilan birgalikda, “pala-partish” so‘zi ko‘p qo‘llanib, arabcha “tartibsiz”, “ayqash-uyqash” ma‘nolarini bildiradi. Shu jumladan, “hovoncha” so‘zi ham qo‘llanadi. Bu so‘z arab tilida, shuningdek, tojik tilida ham “o‘g‘ir” ma‘nosini bildiradi. Qolaversa, bu hudud shevasida “g‘o‘ra” so‘zi qo‘llanadi va bu arabcha bo‘lib, “غورة” “uzum boshi” yoki “mevaning yetilmagan holati” ma‘nolarini bildiradi. O‘z navbatida, ushbu hudud shevasida “qiyqim” so‘zining ishlatilishiga ham guvoh bo‘lamiz. Bu so‘z arab tilida “قَيْقَم” (qayqam) so‘zi mayda, parcha-parcha, kesilgan yoki yirtilgan narsalarni bildiradi. Shuningdek, tumanda yoshi kattalar tomonidan “basarlamoq” so‘zi ham ishlatilganligi uchrab turadi. Bu so‘z arab tilida “basira” fe‘lidan kelib chiqqan bo‘lib, ko‘zga ko‘rinadigan qilmoq, yig‘ishtirmoq degan ma‘noni anglatadi.

Ushbu yer shevasida rus tilidan o‘zlashgan so‘zlar ham ko‘p. Ularning deyarli barchasi Sovet Ittifoqi davridan beri qo‘llanib kelayotgan. Masalan, “lampochka” so‘zi kamdan-kam hollarda “chiroq” tarzida qo‘llaniladi. “Aksincha” so‘zi o‘rniga esa “nabarot” so‘zi qo‘llaniladi. “Voyenny” — “harbiy”, “muzыka” — “musiqqa”, ayrim joylarda esa “ashula” deb ham yuritiladi. Shuningdek, ba‘zi maishiy buyumlar va atamalar ham rus tilidan kirib, xalq orasida keng tarqalgan: “raskladushka” — “yig‘iladigan yotoq”, “stolba” — “simyog‘och” (elektr ustuni), “shar” — “bolalar o‘yinchoq‘i”. Shuningdek, rus tilidan kirib kelgan “pachka” (do‘konlardagi mahsulot

<sup>2</sup> Фарҳанги тафсирии забони тоҷикӣ. Ҷилди 2. – Душанбе, 2010 – Б.22

<sup>3</sup> Фарҳанги тафсирии забони тоҷикӣ. Ҷилди 1. – Душанбе, 2010 – Б.666

<sup>4</sup> Фарҳанги тафсирии забони тоҷикӣ. Ҷилди 2. – Душанбе, 2010 – Б.375

o‘ramini anglatuvchi), “spisok”(spiska) ko‘rinishida - (ro‘yxat)kabi so‘zlar ham bu shevada ko‘p qo‘llaniladi. Ba‘zi uy jihozlarining nomlari ham ruscha aytiladi. “Tryumo” – bu so‘z “kiyinish stoli” degan ma‘noni anglatadi. “Stenka” so‘zi ham ko‘p qo‘llaniladi, bu so‘z “idishsimon narsalarning devori” degan ma‘noni anglatadi.

Shaxslarga murojaat qilishda ham tumanda shevaga oid ko‘plab so‘zlarni uchratishimiz mumkin. Misol uchun, o‘zidan 1,2 yosh katta ayolga “aya” yoki “xola” tarzida murojaat qilinadi. Onaga nisbatan esa “aba” so‘zi qo‘llaniladi. “Amaki” so‘zini o‘rniga esa “ova” so‘zi ishlatiladi. Bobolarga esa “opodda” tarzida murojaat qilinadi. Buvilarni esa “acha” deyiladi. Onasining yoki otasining buvisini esa “opocha” tarzida aytiladi. Ayol o‘qituvchilarni esa “oya” deb murojaat qilish keng tarqalgan bo‘lib, bu so‘z aslida forscha “oya” so‘zidan olingan.

Har bir tumanning o‘ziga xos marosimlari bor. Yangiqo‘rg‘onda ham ko‘plab marosimlar bor. Shu jumladan, to‘ydan keyin o‘tkaziladigan “kelinsalom”, “otayupatdi”, “kelinchaqirdi”, “kuyovchaqirdi”, “hojichaqirdi” kabi marosimlar bor. Yangiqo‘rg‘onda marosim so‘zi o‘rniga “yuruq” so‘zi ishlatiladi.

Yangiqo‘rg‘on tumanidagi ayrim qishloqlarda “-yapti” qo‘shimchasi o‘rniga “-vetti” qo‘llaniladi. Bu holat ko‘proq Birlashgan qishlog‘ida yaqqol namoyon bo‘ladi. Qilyapman – qivetman [qıvɛtman ], qolyapti – qovetti [qovEtti], yozyapti – yozvetti [yozvɛtti]. Shuningdek, Birlashgan qishlog‘ida “dori” so‘zi “dari” tarzida aytiladi. Yangiqo‘rg‘on tuman markazida esa “-yapti” qo‘shimchasi “-vitti” tarzida aytiladi. Yeyapman – yevitman [yɛvitman] tarzida aytiladi.

### **Xulosa**

Xulosa qilib aytganda, har bir hududning shevasini o‘rganish orqali o‘zbek tilining qanchalik rang-barang ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Shevalar ustida tadqiqot olib borish xalqlarning urf-odatları, tarixi, madaniyati, so‘zlashuv uslublarini o‘rganish bilan bir qatorda tilshunoslik uchun ham muhimdir. Bunday tadqiqotlar tilshunoslikdagi shevalar haqida ma‘lumotlarning ko‘payishi va ularning rivojlanishiga xizmat qiladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Фарҳанги тафсирии забони тоҷикӣ. Ҷилди 1. 2– Душанбе, 2010 – 996 б.
2. Darvishov I. Shevalar – etnoslararo til munosabatlarining tarixiy dalili.
3. N Ubaydullayev. Memuar asar tahlili. International conference on interdisciplinary science 1 (10), 268-273, 2024

**“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC  
INNOVATIVE RESEARCH”**

**Volume 02. Issue 03. March 2025**

4. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining etimologik lug‘ati. 1-jild – Toshkent: Universitet, 2000-600b.
5. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining etimologik lug‘ati. 2-jild – Toshkent: Universitet, 2003-600b.
6. NX Ubaydullayev. The depiction of the image of a creative person in autobiographical inscriptions. Current research journal of philological sciences 2 (07), 36-39, 2021
7. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining etimologik lug‘ati. 3-jild – Toshkent: Universitet, 2014.
8. Xasanov O. O‘zbek adabiy tilidagi leksik lakunalarning dialektal asoslari. – Toshkent, 2021
9. U Normuhammad. A look at the history of biographical works or mooses. International Journal of Pedagogics 4 (12), 232-234, 2024.
10. Saodat, I., & Ma’suda, E. (2023). Bilingvizm turlari va ikkinchi til leksik bazasi. In international scientific conferences with higher educational institutions (Vol. 1, No. 14.04, pp. 185-188).
11. Bakhronova, D., Alavutdinova, N., Israilova, S., & Vilchis, V. V. Color Lexemes in Context: Cognitive and Cultural Explorations.
12. Saodat, I. Ko ‘k’ leksemasining etimologik tavsifi. O ‘zbekiston, 75.
13. Israilova, S. (2022). “Ko ‘k’ leksemasi semantikasini yoritishda tezaurus modelidan foydalanish. Computer linguistics: problems, solutions, prospects, 1(1).
14. Dadaboyev, H., Hamidov, Z., & Xolmanova, Z. (2007). O ‘zbek adabiy tili leksikasi tarixi. Toshkent: Fan, 97-103.
15. [https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Yangiqa%CA%BBrg%CA%BBon\\_tumani](https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Yangiqa%CA%BBrg%CA%BBon_tumani)

**Research Science and  
Innovation House**